Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. V tom. T., “Fan”, 1976, 664-bet.

(2). Alimjonov D. 6-sinf fizika fanini o‘qitishda fanlararo aloqalarni amalga oshirish usullari. Academic Research in Educational Sciences. 2022, vol. 3, Issue 6, ISSN: 2181-1385.

3. Коменский Я. Избранные педагогические сочинения. В 2-х томах.Т.1, М., 1982.

4. Кулагин П.Г. Межпредметные связи в процессе обучения. М., «Просвещение»,1981, с.96

Raxmonova Amira Ulfatovna (PhD SamDCHTI dotsenti v.b.; amirarakhmonova9128@gmail.com)

INGLIZ VA O‘ZBEK SIYOSIY DISKURSINING UMUMIY HAMDA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek siyosiy diskursining umumiy hamda milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy-kontrastiv tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqot T.van Deyk, N.Ferklof, R.Vodak kabi xorijiy olimlarning tanqidiy va sotsiokognitiv diskurs tahlili nazariyalari hamda Sh.Safarov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganovaning pragmalingvistik va antropotsentrik yondashuvlariga tayanadi. Amerika va Buyuk Britaniya davlat arboblari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlaridan olingan misollar asosida ikkala diskursda ham ishontirish, jamoaviy o‘zlikni shakllantirish va emotsional ta’sir kabi umumiy kommunikativ maqsadlar aniqlansa-da, ularning til vositalari orqali amalga oshirilishi milliy-madaniy va siyosiy-tarixiy kontekstga ko‘ra farqlanishi ko‘rsatiladi. Tahlil natijalari metafora, antiteza va frazeologik birliklarning har ikki diskursda turlicha manba-soha va yo‘nalishga ega ekanligini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *siyosiy diskurs, qiyosiy-kontrastiv tahlil, metafora, antiteza, milliy-madaniy xususiyatlar, pragmalingvistika, tanqidiy diskurs tahlili, jamoaviy o‘zlik.*

ОБЩИЕ И НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ПОЛИТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

Аннотация. *В статье на основе сравнительно-контрастивного анализа исследуются общие и национально-культурные особенности английского и узбекского политического дискурса. Исследование опирается на теории критического и социокогнитивного анализа дискурса зарубежных учёных, таких как Т.ван Дейк, Н.Фэрклоу и Р.Водак, а также на прагмалингвистический и антропоцентрический подходы Ш.Сафарова, Н.Махмудова и Д.Худойберга новой. На материале примеров из речей американских и британских государственных деятелей, а также Президента Республики Узбекистан показано, что, несмотря на наличие общих коммуникативных целей в обоих дискурсах, таких как убеждение, формирование коллективной идентичности и эмоциональное воздействие, их языковая реализация различается в зависимости от национально-культурного и политико-исторического контекста. Результаты анализа подтверждают, что метафора, антитеза и фразеологические единицы характеризуются различными сферами-источниками и прагматической направленностью в английском и узбекском политическом дискурсе.*

Ключевые слова: *политический дискурс, сравнительно-контрастивный анализ, метафора, антитеза, национально-культурные особенности, прагмалингвистика, критический дискурс-анализ, коллективная идентичность.*

GENERAL AND NATIONAL-CULTURAL FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK POLITICAL DISCOURSE

Annotation. *This article examines the general and national-cultural features of English and Uzbek political discourse through a comparative-contrastive analysis. The study draws on the theories of critical and sociocognitive discourse analysis developed by foreign scholars such as T.van Dijk, N.Fairclough, and R.Wodak, as well as on the pragmalinguistic and anthropocentric approaches of Sh.Safarov, N. Mahmudov, and D.Khudoyberganova. Based on examples drawn from the speeches of American and British political figures and the President of the Republic of Uzbekistan, the study demonstrates that although both discourses share common communicative goals, such as persuasion, the construction of collective identity, and emotional impact, their linguistic realization varies depending on national-cultural and political-historical contexts. The findings confirm that metaphors, antithesis, and phraseological units exhibit different source domains and pragmatic orientations in the two discourses.*

Keywords: *political discourse, comparative-contrastive analysis, metaphor, antithesis, national-cultural features, pragmalinguistics, critical discourse analysis, collective identity.*

Kirish. Siyosiy diskurs zamonaviy tilshunoslikda siyosiy muloqotning muhim shakli sifatida qaralib, uning yordamida nafaqat siyosiy axborot uzatiladi, balki jamoatchilik ongiga ta’sir ko‘rsatiladi, siyosiy qarashlar shakllantiriladi hamda ijtimoiy birdamlik mustahkamlanadi. Globallashuv sharoitida turli tillar va

madaniyatlarga xos siyosiy nutqiy faoliyatlarni qiyosiy tadqiq qilish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ingliz va o'zbek siyosiy diskursini qiyosiy tahlil qilish bizga siyosiy muloqotning universal qonuniyatlari bilan bir qatorda, siyosiy voqelikning milliy-o'ziga xos tarzda lingvistik namoyon qilinish usullarini ham aniqlash imkonini beradi. Xususan, his-tuyg'ularni ifodalash uchun qo'llaniladigan metafora, giperbola, takror, antiteza hamda frazeologik birliklarning qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega. Mazkur muammo pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik va siyosiy lingvistika kabi zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari doirasida keng tadqiq etib kelinmoqda. Uning nazariy va amaliy jihatdan o'rganilishiga T.van Deyk, N. Ferklof, R.Vodak kabi xorijiy tadqiqotchilar, shuningdek, o'zbek tilshunosligida Sh.Safarov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova va boshqa olimlar salmoqli hissa qo'shgan. Mazkur tadqiqotlarda tilning ijtimoiy va kommunikativ tabiati, uning hokimiyat, mafkura, tafakkur va madaniyat bilan o'zaro aloqasi, shuningdek, nutqning shaxs va jamiyatga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari turli nazariy va metodologik yondashuvlar asosida yoritilgan. Shunga qaramay, ingliz va o'zbek siyosiy diskursining emotsional-ekspressiv, stilistik va pragmatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish masalasi hanuzgacha yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, dolzarbligicha qolmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili. Siyosiy diskurs til, siyosat, madaniyat va jamiyat kesishmasida shakllanuvchi murakkab kommunikativ hodisadir. Zamonaviy tilshunoslikda u siyosiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq hamda siyosiy voqelikni talqin qilish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va adresatga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan nutqiy amaliyotlar majmui sifatida qaraladi (van Dijk, 1997; Wilson, 2015). Oddiy axborot almashinuvidan farqli ravishda, siyosiy diskurs yaqqol ifodalangan pragmatik maqsadga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Siyosiy arbobning maqsadi nafaqat muayyan axborotni yetkazish, balki auditoriyani ma'lum bir g'oyaga ishontirish, kerakli munosabatni shakllantirish yoki uni muayyan harakatga undashdan iborat.

Siyosiy diskursda o'zini ijobiy namoyon etish strategiyasi hamda va "o'z" guruhining ijobiy obrazini shakllantirish va uni "boshqa" guruhlarga qarama-qarshi qo'yish alohida ahamiyat kasb etadi. T.van Deykning ta'kidlashicha, siyosiy diskurs, ko'pincha, o'z guruhini ijobiy, muxolif guruhni esa salbiy jihatdan tasvirlash tamoyili asosida shakllanadi. Bunday yondashuv mafkuraviy qarama-qarshilikning kuchayishiga hamda jamoatchilik ongiga ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi (van Dijk, 1997, 2006). Shu nuqtayi nazardan, siyosiy diskursda ishontirish strategiyasi mantiqiy-daliliy vositalar bilan emotsional-baholovchi birliklarning o'zaro uyg'un va maqsadli qo'llanilishi orqali amalga oshiriladi. Siyosiy diskurs muayyan jamiyatga xos milliy-madaniy qadriyatlar va tarixiy tajriba ta'sirida shakllanadi. Shu bois universal kommunikativ strategiyalar turli madaniyatlarda o'ziga xos lingvistik hamda mazmuniy ifodaga ega bo'ladi. R.Vodakning ta'kidlashicha, diskurs orqali identifikatsiyaning konstruksiyalanishi til faoliyat ko'rsatadigan tarixiy va ijtimoiy kontekst bilan uzviy bog'liqdir (Wodak, 2011).

Ingliz va o'zbek siyosiy diskursiga xos umumiy jihatlar qatorida auditoriyani ishontirishga intilish, ijobiy o'zini namoyon etish, jamoaviy o'zlikni shakllantirish hamda emotsional ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan kommunikativ maqsadlarni qayd etish mumkin. Biroq mazkur maqsadlarning lingvistik va mazmuniy jihatdan amalga oshirilishi muayyan milliy-madaniy qadriyatlar hamda siyosiy-tarixiy kontekstga ko'ra farqlanishi mumkin. O'zbek siyosiy diskursida milliy birlik, barqarorlik, tinchlik, ijtimoiy hamjihatlik va jamoaviy farovonlik kabi konseptlar alohida ahamiyat kasb etishi mumkin. Ingliz siyosiy diskursida esa shaxsiy mas'uliyat, siyosiy tanlov va ommaviy dalillashga asoslangan kommunikativ strategiyalarning nisbatan xilma-xil namoyon bo'lishi kuzatiladi. Shunday qilib, milliy-madaniy omil siyosiy kommunikatsiyaning universal qonuniyatlarini inkor etmaydi, balki ularning muayyan til va madaniyat doirasida qanday lingvistik shaklda namoyon bo'lishini belgilaydi. Umumiy hamda milliy-o'ziga xos xususiyatlarning o'zaro uyg'unligi ingliz va o'zbek siyosiy diskursini qiyosiy jihatdan tadqiq etishning nazariy asosini tashkil etadi.

Ingliz va o'zbek siyosiy diskursida ishontirish strategiyasi dalillash, asosiy g'oyalarni takrorlash, ijtimoiy qadriyatlar, tarixiy tajriba hamda jamoaviy manfaatlarga murojaat qilish orqali amalga oshiriladi. Bunday ratsional va emotsional tarkibiy jihatlarning uyg'unligi auditoriyani nafaqat axborot bilan ta'minlash, balki siyosiy voqelikning muayyan talqinini shakllantirish imkonini ham beradi (Chilton, 2004; van Dijk, 2006). Antiteza ikki hodisa, qarash yoki siyosiy subyektni qarama-qarshi qo'yishga asoslanadi. Bunday sintaktik va mazmuniy qurilish "biz – ular", "o'tmish – hozirgi davr", "muammo – yechim" kabi aniq qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirib, murakkab siyosiy masalalarning auditoriya tomonidan osonroq anglanishiga xizmat qiladi. Shu kabi stilistik vositalar siyosiy dalillash hamda mafkuraviy mazmunni ifodalashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi (Fairclough, 1995; van Dijk, 1997).

Ingliz va o'zbek siyosiy diskursining eng yaqqol umumiy xususiyatlaridan biri ko'plikdagi birinchi shaxs olmoshlarining faol qo'llanilishidir. Ingliz tilidagi *we, us, our* hamda o'zbek tilidagi *biz, bizning* ol-

moshlari siyosiy notiqqa o‘zini muayyan ijtimoiy guruh tarkibiga kiritish va auditoriya bilan birlik hamda hamjihatlik hissini shakllantirish imkonini beradi. Masalan, *we must work together* birikmasi va uning funksional jihatdan muqobil shakli bo‘lgan *biz birgalikda ishlashimiz kerak* nafaqat harakat ishtirokchilarining umumiy guruhini ifodalaydi, balki jamoaviy mas’uliyatga asoslangan o‘ziga xos diskursiv makonni ham shakllantiradi. Bunda *we/biz* olmoshlarining referenti kontekstga qarab o‘zgarishi mumkin: u mamlakatning butun aholisini, siyosiy elita vakillarini, hukumatni yoki muayyan ijtimoiy guruhni anglatishi mumkin. Shunday qilib, olmoshlardan foydalanish strategiyasi jamoaviy o‘zlik va ijtimoiy birdamlikni shakllantirishda muhim funksiyani bajaradi. Van Dijk (1997) ta’kidlaganidek, olmoshlar vositasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar siyosiy diskursni tashkil etish hamda ijtimoiy guruhlarni ifodalashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida pragmalingvistika yo‘nalishining shakllanishida Sh.Safarovning “Pragmalingvistika” (2008) monografiyasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarda til va nutq dixotomiyasi, lisoniy faoliyat, lisoniy qobiliyat hamda diskurs kabi tushunchalar jahon tilshunosligi (xususan, Ch.Pirs, Ch.Morris, T.van Deyk kabi olimlarning) tajribasi asosida birinchilardan bo‘lib o‘zbek tilshunosligiga izchil tarzda olib kirilgan (Safarov, 2008). Muallifning fikricha, nutq qanchalik ijtimoiy xarakterga ega bo‘lsa, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchi uchun qanchalik umumiy va majburiy bo‘lsa, u shunchalik ijtimoiy ahamiyat kasb etadi; bu qoida siyosiy nutqning ommaviy ishontirish vazifasini nazariy jihatdan asoslash uchun ham muhim tayanch bo‘la oladi. Safarovning “Kognitiv tilshunoslik” (2006) asari esa pragmalingvistik tahlilni kognitiv yondashuv bilan boyitib, o‘zbek tilshunosligida diskurs tushunchasining kognitiv asoslarini mustahkamlaydi. D. Xudoyberganovaning “Matnning antroposentrik tadqiqi” (2013) monografiyasi hamda “O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini" (2015) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida matn, birinchi navbatda, inson omili–uning bilim, tajriba, qadriyatlar tizimi va dunyoqarashi–nuqtayi nazaridan, tahlil qilinadi (Xudoyberganova, 2013; 2015). Muallifning “Matnning mazmuniy tarkibida metaforalar” (2012) nomli maqolasida ilgari surilgan g‘oyalar matndagi metaforik vositalarni tahlil qilishning aniq metodologik yo‘l-yo‘riqlarini beradi va bu yondashuv, garchi bevosita siyosiy matn misolida sinalmagan bo'lsa-da, siyosiy nutqdagi metaforalarni tahlil qilishga to‘liq tatbiq etilishi mumkin.

Nihoyat, D.Ashurova va M.Galiyevaning “Cultural Linguistics” (2019) o‘quv qo‘llanmasi o‘zbek oliy ta’lim tizimida lingvomadaniyatshunoslik fanining nazariy asoslarini mustahkamlagan muhim manbalardan biridir. Asarda til madaniyatning “ko‘zgusi”, “xazinasi”, “tashuvchisi” va “quroli” sifatida ta’riflanadi hamda til orqali madaniy bilimning avloddan-avlodga uzatilishi mexanizmlari yoritiladi (Ashurova, Galiyeva, 2019). Ushbu nazariy asos siyosiy nutqdagi milliy-madaniy konseptlarning (masalan, “oila”, “birlik”, “tinchlik” kabi) qanday til vositalari orqali “saqlanishi va uzatilishi”ni tushunish uchun qo‘shimcha nazariy tayanch bo‘la oladi.

Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilshunosligida Safarov, Mahmudov, Xudoyberganova hamda Ashurova va Galieva tomonidan yaratilgan pragmalingvistik, lingvokulturologik va antropotsentrik nazariy asos siyosiy diskursni tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan metodologik poydevorni tashkil etadi. Biroq ushbu nazariy asos hozirgacha bevosita siyosiy diskursning o‘ziga emas, balki, asosan, badiiy matn, umumiy pragmalingvistika va lingvokulturologiya masalalariga tatbiq etilgan.

Tadqiqotning metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-kontrastiv tahlil, kontekstual tahlil hamda pragmalingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Til materiali sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari (president.uz rasmiy sayti), shuningdek ingliz tilidagi siyosiy nutqning klassik namunalari – B.Obamaning saylovoldi va inauguratsiya nutqlari (NPR arxivi) hamda U.Cherchillning Fulton (Missouri, 1946-yil) nutqi – tanlab olindi.

Nutqlarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi: a) nutqning davlat rahbari tomonidan rasmiy sharoitda (parlament, inauguratsiya, xalqaro miqdon) aytilgan bo‘lishi; b) nutq matnining to‘liq va tekshirilgan manbada (rasmiy sayt yoki nufuzli ommaviy axborot vositasi arxivi) mavjudligi; v) tahlil qilinayotgan til vositasi (metafora, antiteza, frazeologik birlik)ning nutqda aniq va izchil namoyon bo‘lganligi. Tahlil jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi: 1) matn darajasida til vositalarini aniqlash (deskriptiv bosqich); 2) aniqlangan vositalarni ingliz va o‘zbek diskursi bo‘yicha guruhlash va qiyoslash (qiyosiy-kontrastiv bosqich); 3) aniqlangan o‘xshashlik va farqlarni nazariy adabiyot asosida izohlash.

Tahlil va natijalar. O‘zbek siyosiy diskursida jamoaviy o‘zlikni shakllantirish, ko‘pincha, oila metaforasi orqali amalga oshiriladi. Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida O‘zbekiston “katta va inoq oila” sifatida tasvirlanadi, uning har bir a’zosi tinch va farovon hayot kechirishi davlat siyosatining maqsadi sifatida ko‘rsatiladi. Bu yerda millat yaxlit qarindoshlik tuzilmasi sifatida konseptuallashtiriladi, bu esa an’anaviy jamoaviylik va patriarxal qadriyatlarga asoslangan madaniy kodni aks ettiradi.

Ingliz siyosiy diskursida, aksincha, jamoaviy o'zlik ko'pincha "va'da" (promise) metaforasi orqali shakllantiriladi. B.Obamaning nomzodlikni qabul qilish nutqida "individual responsibility and mutual responsibility – that's the essence of America's promise" ("shaxsiy mas'uliyat va o'zaro mas'uliyat – Amerika va'dasining mohiyati") deyiladi. Bu yerda millat qarindoshlik emas, balki fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma sifatida talqin qilinadi. Bu G'arb siyosiy an'analariga xos individualistik-shartnomaviy dunyoqarashning tilda aks etishidir. Har ikkala misolda ham metafora jamoaviy o'zlikni shakllantirish uchun ishlatilgan bo'lsa-da, manba-soha farq qiladi: o'zbek diskursida bu *qarindoshlik/oila*, ingliz diskursida esa *shartnoma/va'da*. Ushbu farq milliy-madaniy qadriyatlarning til orqali qanday "loyihalanishini" ko'rsatuvchi yaqqol dalildir. Ikkala diskursda ham shaxs va jamiyat/davlat munosabati antiteza shaklida ifodalanadi, biroq ularning yo'nalishi qarama-qarshi. B.Obama o'zining inauguratsiya nutqida "What is required of us now is a new era of responsibility" ("Bizdan hozir talab qilinadigan narsa – yangi mas'uliyat davridir"), deb ta'kidlaydi. Bu yerda mas'uliyat fuqarodan davlat va jamiyatga qarab yo'naltirilgan (burch nuqtai nazari). O'zbek diskursida esa aksincha yo'nalish kuzatiladi: Sh.Mirziyoyev "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat" degan g'oyani Konstitutsiya va qonunlarga singdirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu yerda ustuvorlik davlatdan fuqaroga qarab yo'naltirilgan (g'amxo'rlik nuqtai nazari). Har ikki misolda ham antiteza (shaxs–jamiyat/davlat) qo'llanilgan, biroq mas'uliyat va ustuvorlikning yo'nalishi teskari: ingliz diskursida fuqaro davlat oldida mas'uliyatli, o'zbek diskursida esa davlat fuqaro oldida mas'uliyatli qilib taqdim etiladi. Bu G'arb siyosiy madaniyatidagi fuqarolik burchi tushunchasi bilan Sharq (o'zbek) siyosiy madaniyatidagi patronaj-g'amxo'rlik tushunchasi o'rtasidagi farqning aniq lingvistik ko'rinishidir.

Ingliz siyosiy diskursida metaforalar, ko'pincha, geosiyosiy voqelikdan olinadi va yangi tushunchalarni ifodalash uchun yaratiladi. U.Cherchillning mashhur Fulton nutqida "an iron curtain has descended across the continent" ("temir parda qit'a bo'ylab tushdi") iborasi qo'llanilgan – bu abstrakt siyosiy-mafkuraviy chegarani ifodalovchi, o'sha davrda yangi yaratilgan metafora edi. O'zbek siyosiy diskursida esa, aksincha, mavjud xalq frazeologiyasidan foydalanish xarakterlidir. Islohotlarning sustligini tanqid qilar ekan, davlat rahbari "eski hammom, eski tos" iborasini ishlatib, o'zgarishsiz qolgan holatni tanqid qiladi. Bu kundalik turmush tajribasidan olingan, xalq orasida keng tarqalgan frazeologik birlik. Ingliz diskursida siyosiy metafora ko'pincha *yangi yaratiladi* va geosiyosiy mavzularga xizmat qiladi, o'zbek diskursida esa ko'proq *tayyor frazeologik fond*dan foydalaniladi va kundalik hayot tajribasiga tayanadi. Bu farq qayd etilgan frazeologik birliklarning o'zbek diskursidagi nisbatan yuqori chastotasini tasdiqlaydi. Siyosiy diskursdagi yana bir muhim farq siyosiy yetakchining o'zini xalq bilan qanday munosabatda namoyon etishida kuzatiladi. O'zbek siyosiy nutqida rahbarning xalq bilan emotsional yaqinligini ifodalovchi konstruksiyalar faol qo'llanadi. Masalan: "Har bir vatandoshimning yutug'i – bu mening yutug'im, tashvishi – mening tashvishim...". Mazkur jumlada yutug'i – mening yutug'im / tashvishi – mening tashvishim shaklidagi parallelizm siyosiy rahbarning shaxsiy manfaatlarini xalq manfaatlari bilan birlashtiradi. *Mening* egalik olmoshining takrorlanishi esa rahbarning xalq hayotiga daxldorligini kuchaytiradi. Bu yerda shaxsiy "men" va jamoaviy "xalq" o'rtasidagi chegaraning qisqarishi kuzatiladi. Ingliz siyosiy diskursida esa shaxsiy va jamoaviy mas'uliyatning boshqa modeli ham kuzatiladi. Masalan, John F.Kennedy inauguratsion nutqida: "Ask not what your country can do for you–ask what you can do for your country." Ushbu konstruksiyada *you* va *your country* qarama-qarshi qo'yilib, fuqaroning davlatdan nima olishi emas, balki davlat uchun nima qilishi kerakligi ta'kidlanadi. Har ikki misolda siyosiy kommunikatsiyaning markazida shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabat turadi. Ammo ularning pragmatik yo'nalishi farq qiladi. Mirziyoyev nutqida siyosiy rahbar o'zini xalq bilan emotsional va manfaat jihatdan birlashtiradi: xalqning yutug'i – rahbarning yutug'i, xalqning tashvishi–rahbarning tashvishi. Kennedi nutqida esa asosiy urg'u fuqaroning shaxsiy mas'uliyatiga qaratiladi. Ya'ni, birinchi misolda rahbar→xalq bilan birlik, ikkinchisida esa fuqaro→davlat oldidagi mas'uliyat munosabati ustuvor. Baholovchi leksika ham har ikki diskursda siyosiy voqelikni ijobiy talqin qilishning muhim vositasidir. Masalan, Theresa May nutqida: "The UK will be a confident, strong and dependable partner internationally – true to the universal values that we share together." Bu yerda *confident, strong, dependable* sifatlari Buyuk Britaniyaning ijobiy siyosiy obrazini yaratadi. Ular mamlakatni xalqaro maydonda faol, kuchli va ishonchli hamkor sifatida taqdim etishga xizmat qiladi. O'zbek siyosiy diskursida esa baholovchi leksika, ko'pincha, milliy va vatanparvarlik mazmunidagi birliklar bilan birga keladi. Masalan: *"Boshlagan buyuk ishlarimizni, albatta, oxiriga yetkazamiz."*

Bu jumlada *buyuk ishlarimiz* birikmasi siyosiy faoliyatga yuqori ijobiy baho beradi. *Buyuk* sifatining *ishlarimiz* bilan birikishi amalga oshirilayotgan siyosiy jarayonlarni nafaqat muhim, balki tarixiy ahamiyatga ega faoliyat sifatida talqin qilish imkonini beradi. Har ikki misolda baholovchi birliklar siyosiy subyektning ijobiy obrazini shakllantiradi. Biroq ingliz misolida baholash xalqaro siyosiy maqom va institutsi-

onal ishonchlilik (*confident, strong, dependable partner*) bilan bog‘langan. O‘zbek misolida esa buyuk leksemasi siyosiy faoliyatni milliy taraqqiyot va tarixiy ahamiyat nuqtayi nazaridan yuqori baholaydi. Demak, baholash funksiyasi universal bo‘lsa-da, uning semantik yo‘nalishi milliy-madaniy kontekst bilan belgilanadi.

Keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida metafora, antiteza va baholovchi leksika kabi universal ritorik vositalar bir xil kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladi. Biroq ularning mazmuniy to‘ldirilishi – metaforaning manba-sohasi, antitezaning yo‘nalishi va frazeologik birliklarning manbayi – milliy-madaniy va siyosiy-tarixiy kontekst bilan bevosita bog‘liq holda farqlanadi. Shunday qilib, ingliz va o‘zbek siyosiy diskursi asosiy kommunikativ maqsad va strategiyalar darajasida sezilarli o‘xshashlikni namoyon etadi. Har ikki diskurs uchun ishontirish va ta’sir ko‘rsatishga intilish, emotsional-ekspressiv vositalardan foydalanish, jamoaviy o‘zlikni shakllantirish hamda ijobiy o‘zini namoyon etish kabi jihatlar umumiy xususiyatlar sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur strategiyalarning muayyan lingvistik vositalar orqali ifodalanishi milliy-madaniy hamda tarixiy-siyosiy omillar ta’sirida farqlanishi mumkin. Aynan ushbu umumiy va milliy-o‘ziga xos jihatlar ingliz va o‘zbek siyosiy diskursining keyingi qiyosiy tahlili uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan qiyosiy-kontrastiv tahlil ingliz va o‘zbek siyosiy diskursi o‘rtasidagi murakkab munosabatni ochib berdi: bir tomondan, ikkala diskurs ham ishontirish, ijobiy o‘zini namoyon etish, jamoaviy o‘zlikni shakllantirish va emotsional ta’sir ko'rsatish kabi universal kommunikativ maqsadlarga xizmat qiluvchi metafora, antiteza va frazeologik birliklardan foydalanadi. Ikkinchi tomondan, ushbu vositalarning mazmuniy to‘ldirilishi milliy-madaniy va siyosiy-tarixiy kontekst bilan bevosita bog‘liq holda farqlanadi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u siyosiy diskurs tahlilining xorijiy va o‘zbek an’analarini bir metodologik tizimga birlashtirish imkoniyatini namoyish etdi. Amaliy jihatdan, tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik hamda siyosiy kommunikatsiya bo‘yicha o‘quv kurslarida foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ashurova D.U., Galieva M.R. (2019). Cultural Linguistics: Main Issues, Trends and Tasks. Uzbekistan, Language and Culture, 2, p. 42–73.

(2). Chilton P. (2004). Analysing Political Discourse. Theory and Practice. London, Routledge.

(3). Fayziyeva, N. Siyosiy diskurs evfemizmlarining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida). Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... dis., 2023.

(4). Kenjayeva A. Gender va lisoniy identiklikning siyosiy diskursda lingvokognitiv va lingvopragmatik konstruksiyasi: ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy tahlili, 2026.

(5). Kennedy J.F. Inaugural Address, 20 January 1961. Washington, D.C., 1961.

(6). Lakoff G. (1996/2016). Moral Politics: How Liberals and Conservatives Think. Chicago, University of Chicago Press.

(7). Mahmudov N. O‘xshatishlar va milliy obraz. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2013, 1-son, 3–8-betlar.

(8). May T. PM statement at the European Council: 22 June 2017. London, 2017.

(9). Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Toshkent, 2026.

(10). Nazirova Sh. The Role of Language in English and Uzbek Political Discourse. Ingliz va o‘zbek siyosiy nutqlarida tilning o‘rni. Buxoro, 2025.

(11). Qoldashev A., Rozimurodova, N. Ingliz va o‘zbek siyosiy diskurslarida umumiy va farqlovchi xususiyatlarning tipologiyasi. 2026.

(12). Rahimov A. Zamonaviy o‘zbek siyosiy nutqining lingvistik tahlili. Toshkent, “Universitet”, 2018, 152-bet.

(13). Reisigl M., Wodak R. (2009). The Discourse-Historical Approach (DHA). In R.Wodak&M.Meyer (Eds.), Methods of Critical Discourse Analysis. London, Sage.

(14). Ro‘ziyev E. Tilshunoslikda siyosiy diskurs tushunchasi. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. 2021, 229–231-betlar.

(15). Safarov Sh. (2006). Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, “Sangzor”.

(16). Safarov Sh. (2008). Pragmalingvistika. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

(17). Sattorova Y. Siyosiy diskursda aforistik ifodalarning kognitiv qiyosiy tahlili. Ingliz va o‘zbek tillari misolida, 2025.

(18). Van Dijk.T.A. (2013). Ideology and Discourse. In M. Freeden, L.T.Sargent&M. Stears (Eds.), The Oxford Handbook of Political Ideologies. Oxford, Oxford University Press.

(19). Wilson J. (2015). Political discourse. In D Tannen, H.E.Hamilton &D.Schiffrin (Eds.), The Handbook of Discourse Analysis (2nd ed.). Wiley.

(20). Wodak R., Boukala S. (2015). European identities and the revival of nationalism in the European Union. A discourse historical approach. Journal of Language and Politics, 14(1), p. 87–109.

(21). Xudoyberganova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini. Filol. fan. dokt. ... dis., Toshkent, 2015.

Mamatkulova Saidaxon Shukurjonovna (Andijon davlat Chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi, “Ingliz tili amaliy tarjima” kafedrasi dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD); mamatkulovasaida73@gmail.com)

KOGNITIV TILSHUNOSLIK VA LINGVOKULTUROLOGIYA ANTROPOTSENTRIK PARADIGMANING YETAKCHI YO‘NALISHLARI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu kengaaytirilgan ilmiy tadqiqotda XXI asr tilshunosligining markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan antroposentrik paradigmaning nazariy-metodologik manbalari, shakllanish omillari hamda uning ikki asosiy ustuni kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning sohalararo integratsiyasi atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotda til va tafakkur, til va madaniyat, mental tuzilmalar hamda olamning lisoniy manzarasini aniqlashda kognitiv va lingvokulturologik konsepsiyalarning o‘rni qiyosiy va suksessiv metodologiyalar orqali asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *antropotsentrik paradigma, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, konsept, olamning lisoniy manzarasi, mental tuzilma, etnomadaniyat, mental fenomen, lingvokognitiv konseptosfera.*

КОГНИТИВНАЯ ЛИНГВИСТИКА И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ КАК ВЕДУЩИЕ НАПРАВЛЕНИЯ АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОЙ ПАРАДИГМЫ

Аннотация. *В данном расширенном научном исследовании всесторонне анализируются теоретико-методологические источники, факторы формирования и междисциплинарная интеграция когнитивной лингвистики и лингвокультурологии двух основных столпов антропоцентрической парадигмы, являющейся одним из центральных направлений языкознания XXI века.*

Ключевые слова: *антропоцентрическая парадигма, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, концепт, языковая картина мира, ментальная структура, этнокультура, ментальный феномен, лингвокогнитивная концептосфера.*

COGNITIVE LINGUISTICS AND LINGUOCULTUROLOGY AS LEADING DIRECTIONS OF THE ANTHROPOCENTRIC PARADIGM

Annotation. *This expanded scientific study provides a comprehensive analysis of the theoretical and methodological sources, formation factors, and interdisciplinary integration of cognitive linguistics and linguoculturology the two main pillars of the anthropocentric paradigm, which is one of the central directions of 21st-century linguistics.*

Keywords: *anthropocentric paradigm, cognitive linguistics, linguoculturology, concept, linguistic picture of the world, mental structure, ethnoculture, mental phenomenon, linguocognitive conceptosphere.*

1. Kirish (Introduction). Lingvistika tarixiga nazar tashlasak, fanning rivojlanish bosqichlari muayyan ilmiy paradigmalarning almashinishi (T.Kun konsepsiyasi) bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘ramiz. Tilshunoslik XX asrgacha bo‘lgan davrda, asosan, qiyosiy-tarixiy (komparativistik) paradigma doirasida rivojlangan bo‘lsa, XX asrning birinchi yarmida Ferdinand de Sossyurning "Til bu o‘zida va o‘zi uchun mavjud bo‘lgan tizimdir" degan g‘oyasi asosida immanent yoki struktur (tizimli) paradigma qaror topdi. Strukturalizm tilni jamiyatdan, inson ruhiyati va tafakkuridan ajratgan holda, uni faqat ichki elementlar va ularning munosabatlari asosida tadqiq etdi. Biroq tilning faqat "ichki mexanizmi"ni o‘rganish tilning asl mohi-yatini uning inson bilan, uning aqliy faoliyati, his-tuyg‘ulari va milliy madaniyati bilan bog‘liqligini to‘liq ochib bera olmadi. Shu sababli XX asrning 70–80-yillarida tilshunoslikda tub burilish sodir bo‘ldi: antropotsentrik paradigma shakllandi. Antropotsentrik paradigmaning ilmiy ildizlari V.fon Gumboldtning "Til bu faoliyat (energeia), mahsulot (ergon) emas", "Til inson ruhiyatining tashqi ko‘rinishidir" hamda A.A.Potebnyaning "Til va tafakkurning uzviyligi" haqidagi ta’limotiga borib taqaladi. Zamonaviy antropotsentrizm diqqat markaziga Lisoniy shaxs (linguistic personality)ni, ya’ni, tilni tashuvchi, u orqali dunyoni idrok etuvchi va qayta qayta ishlaydigan faol subyektni qo‘yadi. Antroposentrik yondashuvning paydo bo‘lishi bir qator sohalararo fanlarning (psixolingvistika, etnolingvistika, kognitiv psixologiya, pragmalingvistika) rivojlanishi bilan izohlanadi. Bu paradigmaning asosiy mohiyati quyidagi uchta fundamental qoidada na-moyon bo‘ladi:

1. **Til inson kognitiv faoliyatining ko‘zgusidir.** Inson atrofdagi olamni qanday idrok etsa, uni tilda ham shunday aks ettiradi.